



## USMON AZIM SHE'RIYATIDA LEKSIK-SEMANTIK RANGLAR POETIKASI

Narbutayev Xusniddin Ergashevich

Renessans ta'lim universiteti

Karyera markazi rahbari

karyeramarkazirtu@gmail.com

Telefon: +998998743381

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19310026>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 24-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 26-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 28-mart 2026 yil

### KEYWORDS

*Usmon Azim she'riyati, rang leksikasi, semantik tahlil, konnotatsiya, denotatsiya, lingvopoetika, obrazlilik, poetik til.*

### ABSTRACT

*Ushbu tadqiqot Usmon Azim she'riyatida rang bildiruvchi leksik birliklarning semantik va poetik funksiyalarini tahlil etishga bag'ishlangan. Ishda rang leksikasining denotativ va konnotativ ma'nolari, ularning badiiy matndagi ekspressivlikni oshirishdagi o'rni hamda muallif individual uslubini shakllantirishdagi ahamiyati aniqlanadi. Natijada ranglar poetikasi Usmon Azim ijodida semantik chuqurlik va obrazlilikni ta'minlovchi muhim lingvopoetik vosita ekani asoslanadi.*

Insonning murakkab ruhiy holati ranglar orqali yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunda ranglar tabiiy xususiyatlariga xos ravishda qo'llanadi. Bu xususiyatlar esa ularning issiq yoki sovuqqa ajralishi bilan ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, sariq, qizg'ish, qizil, pushti kabilar issiq ranglar sanalsa, sovuq ranglar guruhini esa ko'k, moviy, zumrad, yashil kabilar tashkil etadi. Bundan tashqari, ranglar rangli yoki rangsiz (faqatgina tusdan iborat)ligi, ya'ni xromatik va axromatikligi (xromatik lotincha "xroma" – rang so'zidan olingan, "axroma" rangsiz ma'nosida)ga ko'ra ham tasniflanadi. Xromatik ranglarga oq, qora (va kulrang – ikki rangning aralashuvi) kirs, qolgan barcha ranglar xromatik guruhga taalluqlidir. Ranglar adabiyot taraqqiyoti davomida dastlab ifodalanayotgan detalning sifatlovchisi bo'lib, badiiy tasvirni kuchaytirishga xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik uning funksiyasi murakkab kompozitsion vazifani ado etishga yo'naltirildi. Rang bilan bog'liq ramzlar mavzusi jahon tilshunosligi hamda adabiyotshunosligida turlicha yo'nalishlarda va turfa nuqtai nazarlardan kelib chiqib o'rganilgan. B. Taylor, V. Turner, A. M. Veselovskiy, V. A. Potebnya, V. M. Jirmunskiy, A. Kamyu, A. Losevlar tadqiqotlari shular jumlasidandir. O'zbek tilshunosligida va adabiyotshunosligida ranglarning she'riyatda qo'llanishi bo'yicha bir necha ishlarda umumiy tarzda, yo'l-yo'lakay to'xtab o'tilgan. Bular ichida A. Qayumov, A. Hayitmetov, N. Mahmudov, Yo. Ishoqov, I. Haqqulov, M. Yo'ldoshevlarning fikrlari e'tiborlidir. Jumladan, Yo. Ishoqovning "Navoiy poetikasi" nomli monografiyasida, asosan, mumtoz adabiyotimizdagi ranglarning majoziy xususiyatlariga, e'tiqodiy-an'anaviy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Sh. Turdimov esa o'zbek xalq qo'shiqlarida poetik ramz va rangning ramziyligi xususida ko'proq an'anaviylik nuqtai nazariga tayangan holda fikr yuritgan. N. Jumatova "Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar" maqolasida ranglarning qo'llanish omili sifatida xalq og'zaki

ijodidagi munosabatni asos qilib oladi va bu an'anaviy ranglarning qo'llanishini hozirgi o'zbek she'riyati bilan bog'lab tahlilga tortadi.

Rang, eng avvalo, e'tiqodiy tushuncha emas, balki tabiiy (fizik) hodisadir. Shu fizik hodisa xususiyatiga ko'ra insoniyat rangdan o'z ijtimoiy-g'oyaviy, e'tiqodiy maqsadlari yo'lida, birinchi navbatda, uning tabiiy xususiyatlarini o'zlashtirgani holda foydalangan. Ranglarga ramz vositasi sifatida, ranglarning qo'llanishiga esa an'anaviy munosabat shaklida yondashish bilan cheklanish, nazarimizda, adabiyotda, xususan she'riyatda ranglarning qo'llanishining to'la g'oyaviy-estetik xususiyatlarini ochib berish uchun ozdek ko'rinadi. Bizningcha, adabiyotda ranglarning qo'llanish xususiyatlarini quyidagi tavsif asosida tadqiq etilsa, o'zbek she'riyatidagi ranglarning g'oyaviy-estetik xususiyatlari kengroq ochilardi:

- a) mintaqaviy,
- b) diniy-e'tiqodiy,
- v) mafkuraviy-siyosiy,
- g) umuminsoniy tushunchalarga va
- d) ranglarning tabiiy xususiyatlariga ko'ra.

Adabiyot taraqqiyoti davomida, xususan she'riyatda ranglarning vazifasi kengayib bordi. XX asr o'zbek she'riyati ayni xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunki bu asrda o'lkamiz hayotida keskin, zidiyatli ijtimoiy-siyosiy voqealar yuz berdi. Bu voqealarning badiiy in'ikosi she'riyatda ranglar vositasi orqali namoyon bo'ldi. O'sha davr ruhi, kechinmalari, orzu-umidlarini yaqqolroq ifodalashda muhim rol o'ynadi. Har bir poetik obrazni ijobiy yoki salbiy jihatdan badiiy baholashda asosiy omilga aylandi. Bu hol o'tgan asrning 80-90-yillarida poetik usul darajasida namoyon bo'ldi. Ranglar endi poetik obrazlarning sifatlovchisigina bo'lib qolmay, balki o'zi mustaqil poetik obraz sifatida qo'llana boshladi. Shuningdek, ranglar orqali ijtimoiy-siyosiy, hayotiy-falsafiy muammolarga ishora qilish an'anaga aylandi. Usmon Azimning "Grafika" she'rida sifatlashning o'ziga xos namunasi yaratilgan bo'lib, shoirning badiiy g'oyasi to'g'ridan-to'g'ri ranglar vositasida yoritiladi. Bunda ranglar so'zlarning sifatlovchisi sifatida birikib kelgan bo'lsa-da, aslida o'sha so'z rangni ifodalab kelayotgandek taassurot qoldiradi:

- Unutishing – qora, hijroning – qora,  
Sog'inching oppoqdir, g'amlaring – oppoq.

She'rda dastlab oq va qora ranglar o'rtasidagi kontrastlikni yuzaga keltiruvchi holat berilgan: qora ko'z va qoshga oq yuz va kulish qarama-qarshi qo'yiladi. Shuningdek, ta'na toshlari qora bo'lsa-da, g'amgin boqishlar oq bilan sifatlanadi. Natijada o'quvchi ko'z o'ngida bu poetik obrazlar o'zgacha gavdalanib, xuddi oq va qora kataklardagi shaxmat sipohlari singari shaklga kiradi. Ya'ni qora donalar unutish, hijron, o'ch, vaqt, baxt, taqdir bo'lib kelsa, oq donalar sog'inch, xat, dard, yosh, yurak sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning nima uchun aynan faqat oq va qorani tanlaganining boisi she'r so'ngida fosh etiladi:

- Men million bo'yoqni bilardim, axir,  
Ikkimiz baxtiyor bo'lgan chog'larda...

Lirik qahramonning faqat oq va qora ranglarga murojaat etishi uning ruhiy holati in'ikosi. Xromatik ranglar — bu shoir eslayotgan baxtiyor chog'lar, undagi kechmish his-tuyg'ular "o'sha million bo'yoq"dir. Lirik qahramonning tasvirlanayotgan hozirgi holati xromatik ranglarsiz, faqat axromatik bo'lgan oq va qora rangdangina iborat. Shunday qilib, shoir badiiy g'oyani ifodalashda ranglardan musavvirona mahorat bilan foydalana olgan. His-tuyg'u umid-

ishonchsiz, ya'ni ranglarsiz muhitdagi voqelikning mohiyatini chuqur falsafiylik bilan ochib berishga muvaffaq bo'lgan. Tasvirda oq an'anaviy-umuminsoniy tushuncha ifodalab kelmoqda. Sho'rolar davrida Usmon Azim ijodida ranglar bilan ijtimoiy-siyosiy hamda mafkuraviy muammolarga ishora qilish poetik usul darajasiga ko'tarilgan. "Mangu yo'l" she'ri fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi. She'rda g'oya qizil rangning shartli ramziy xususiyati orqali ochib beriladi. Svetoforning uch rangli chiroqlaridan biri bo'lgan qizil chiroq poetik obraz darajasiga ko'tariladi. Ma'lumki, yo'l harakati qoidalariga muvofiq chiroqning qizili harakatning to'xtashini bildiradi. Lekin shoir zohiran o'sha chiroqqa murojaat etayotgan bo'lsa-da, mohiyatan qizil rang bilan qizil imperiyaga ishora qilayotganini payqash qiyin emas:

Qizil chiroq – yo'l yo'q. To'xtagin!

Mansab! Qizil, qip-qizil chiroq.

She'r so'ngida lirik qahramon tilidan hayotdagi turli qarshiliklarga to'siqlar "qizil chiroqlar" timsolida keltiriladi:

Yasharkansan yonib, kurashib,

Yuragingni chorlar yiroqlar.

Yo'llaringda yotar qalashib,

Mayda-chuyda qizil chiroqlar.

U. Azim bu kabi she'rlarida o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasini ranglar vositasida musavvirona tasvirlab beradi. Bunda u o'sha davrda hukm surgan kuchlarning ramziy ranglarini aniq belgilab, o'z "polotno" sida ravshan aks ettiradi. Natijada shoirning ranglar bilan yaratgan 80–90-yillar "kartinasi" o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, she'rlarda ranglarning qo'llanishi ikki xil namoyon bo'lgan: an'anaviy-umuminsoniy va mafkuraviy-siyosiy tushunchaga ko'ra. Ranglarning umuminsoniy tushunchaga ko'ra qo'llanishida shoir oq rangni baxt, qorani baxtsizlikni ifodalashda qo'llagan. Ushbu ranglarga munosabatning mavjud shakli insoniyatning bugungi tushunchalarida shu tarzda shakllangan. Mafkuraviy-siyosiy tushunchaga ko'ra qizil rangni to'siq, taqiq ramzini ifodalovchi sifatida qo'llagan. Chunki qizil rang sho'rolar hokimiyatining ramzi sifatida tarixda qoldi. Shoir rang ifodalovchi so'zlarni zaruriyatga binoan qo'llar ekan, ular vazifa-mohiyatiga teskari holatlarni ham, ularga monand keluvchi qofiyadoshlik va jihatlarini ham atroflicha mushohada qiladi. Bunday chuqur yondashish ko'p o'rinlarda original natijalar beradi.

"Sochlarimga oq tushdi..." deb boshlanuvchi she'rida "oq" so'ziga "oh", "choh" so'zlarini yaqin olish, qofiyalash orqali ayni paytda ma'no qarama-qarshiligini muvaffaqiyatli hosil qila olgan:

Sochlarimga oq tushdi,

Ko'zlarimdan ketdi nur...

Har so'zimdanda "oh" tushdi,

Ilkimga ming choh tushdi –

Ruhim o'lganda mastur. ("Sochlarimga oq tushdi...")

Xuddi shunday yo'sinda shoir yashil rangga sariq rangni zid qo'yadi. Bu ranglar ham tabiatdagi o'z ma'no ifodalaridan uzoqlashib, inson omilining, kayfiyati, ruhiyatining zuhuriga aylanadi. To'qqiz bandli, yengil vaznli "Yam-yashil bog' ichra..." she'rida "sariq" rang-sifat fe'llashgan holda "yashil" bilan qarshilantiriladi, tazod hosil qiladi:

Yam-yashil bog' ichra  
Yaproq sarg'aydi.  
Ko'nglimda bir nozik  
Titroq sarg'aydi... ("Yam-yashil bog' ichra...")

Rangni bildiruvchi so'zlarning kesim bo'lib kelishi ta'kidni yanada kuchaytiradi. Shoir bu imkoniyatdan foydalanadi:

Olcha – shafaqrang. O'rik –  
Sariq, qizil... Xudoyim!  
Bu kuz bunchalar tiniq,  
Bu kun buncha muloyim! ("Olcha – shafaqrang...")

Shoir – fasllar kuychisi. O'zbek she'riyatida hech qaysi shoir Usmon Azimchalik fasllar sha'niga ko'p asar bitmagan. Uning "Tazarru bog'lari", "Kuzgi bog'dan kelgan she'rlar", "Yozgi bog'", "Qishgi bog'", "Bahorgi bog'lardan kelgan she'rlar" turkumlari juda mashhur. Kuz ifodasida qizil, qizg'ish, sariq, sarg'ish singari ranglarni ko'p qo'llaydi. Ularni ko'pincha yashil rangga, yashillikka kontrast qo'yadi. "Barglar yodimga tushdi" she'rida, garchi tilga olinmasada, yashillik sog'inchi bor. Bunda qizil so'zi qadimiy variantdagi "ol" shaklida keladi:

Ol shafaq jon uzadi,  
Ko'karar gardun...  
Bog'larda tinch suzadi  
Tuman va tutun...

Ma'lum bir faslga xos rangdan shoir o'sha til birligining – rang ifodalovchi sifatning barcha imkoniyatlarini ishga soladi. "Oq" rang ishlatilgan misollarni keltiramiz:

Endi qishning qorida qaytgum –  
Bevazn oq ruhida paydo. ("Darz ketadi...")  
Qanday oppoqdir olam –  
Toza, go'zal, mukarram. ("Qorning yog'ishini tasvirlashga uch urinish")  
– Menga baxsh etgani yaralmoq bir hol,  
Keldingmi, aziz qish –  
Oqdan farishta?! ("Qish")

Usmon Azim ijodida ranglar muhim ramziy obraz darajasiga ko'tariladi. U ranglarning turli xususiyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Usmon Azim ijodida rang bildiruvchi leksik birliklar nafaqat tasviriy vosita, balki matnning semantik chuqurligini oshiruvchi, hissiy-ekspressiv ta'sirni kuchaytiruvchi muhim poetik element sifatida xizmat qiladi. Ranglarning denotativ va konnotativ ma'nolari shoirning individual uslubini shakllantirishga hissa qo'shadi, matnga obrazlilik va lingvopoetik boylik beradi. Shu bilan birga, tadqiqot o'zbek tilshunosligida poetik matn tahliliga oid ilmiy qarashlarni kengaytirishga, leksik-semantik tahlil usullarini amaliy jihatdan qo'llashga imkon yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aristotel. Po'etika. Toshkent, 1980.
2. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
3. Abdullaev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. Toshkent: Fan, 1983.
4. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. Toshkent: Fan, 1981.
5. Abduazizova A. "Fonostilistikas vositalarning o'rganilishiga doir." O'zbek tili va adabiyoti, Toshkent, 1985, № 2.

6. Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopo'etik xususiyatlari. Toshkent: Fan, 2005.
7. Mahmudov N. "Oybek she'riyatidagi o'xshatishlarning lingvopo'etikasi." O'zbek tili va adabiyoti, Toshkent, 1985.

